

**TARIX. MANBASHUNOSLIK  
HISTORY. SOURCE STUDIES**

**G‘aybulla Boboyorov**

(*Toshkent, O‘zbekiston*)  
gaybullah@navoiy-uni.uz

## **Qadimgi turkcha unvonli To‘xoriston tangalari**

### **Abstrakt**

Biror davlatni boshqargan sulolalarning etnik kelib chiqishini aniqlashda ular tomonidan bostirilgan tangalardagi ramziy belgilar, tamg‘a va unvonlar muhim o‘rin tutadi. Qizig‘i shundaki, islomdan oldingi davrlarda To‘xoriston (Janubiy O‘zbekiston – Janubiy Tojikiston – Shimoliy Afg‘oniston)da bostirilgan turkiy tangalardan o‘rin olgan qadimgi turkiy tamg‘a va unvonlar (“xoqon”, “yabg‘u”, “tegin”, “tarxon”) sug‘diy yozuvdadir. Shuningdek, ilk o‘rta asrlarga Chochda bostirilgan G‘arbiy Turk xoqonligi (568-740) tangalaridagi to‘rtta tamg‘a (lira shaklli va uning turlari, langarsimon, qo‘shqilich) To‘xoriston tangalaridagi tamg‘alar bilan yaqin o‘xshashlikka ega. Ilk o‘rta asrlarda Choch va To‘xoristonda o‘xshash tamg‘a va unvonlarning uchrashi bu hududlarda G‘arbiy Turk xoqonligining to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqaruvi yo‘lga qo‘yilishi, shuningdek, xoqonlikning Markaziy Osiyodagi etnomadaniy jarayonlarda tutgan o‘rni bilan chambarchas bog‘liqidir.

**Kalit so‘zlar:** Markaziy Osiyo, Transoksiya, To‘xoriston, islomdan oldingi davr, tangalar, Turk xoqonligi, sug‘diy alifbo, qadimgi turkiy unvonlar, tamg‘alar, sulolalar.

**Muallif haqida:** Boboyorov G‘aybulla Bolliyevich – tarix fanlari doktori, dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

**Iqtibos uchun:** Boboyorov, G. B. 2019. “Qadimgi turkcha unvonli To‘xoriston tangalari”. *O‘zbekiston: til va madaniyat* 2: 74–100.

### **Kirish**

Ilk o‘rta asrlarda Amudaryo – Sirdaryo oralig‘i va unga tutash hududlardagi o‘nlab voha hukmdorliklaridan biri bo‘lgan

## *Qadimgi turkcha unvonli To'xoriston tangalari*

To'xoriston o'liasi Termiz, Chag'oniyon, Xuttal, Badaxshon, Balx, Guzgon (Juzjon), Kumed (Qorategin), Vaxsh, Qo'bodiyon va shunga o'xshash o'nlab katta-kichik hukmdorliklardan iborat edi. Bu davrga tegishli yozma yodgorliklar To'xoristonda asosi yunoncha bo'lgan baqtriy yozuvida ish yuritilganini ko'rsatadi. Buni ushbu tarixiy o'lkaza tegishli tangalar, devor yozuvlari, bitiktoshlar, teri, sopol va metall buyumlar sirtidagi bitiklar va Shimoliy Afg'onistondan topilgan yuzlab baqtriy tilli hujjatlar tasdiqlaydi. Shu bilan birgalikda ilk o'rta asrlar To'xoriston tangalarining bir qismida sug'diy yozuvlar uchrab, o'z xususiyatiga ko'ra ular mintaqasi tarixi bilan bog'liq ko'plab masalalarga oydinlik kiritadi.

Keyingi yillarda sug'diy yozuvdagi qadimgi turkcha unvonli ko'plab To'xoriston tangalarining topilishi ular bo'yicha chuqurroq izlanishlar olib borilishini talab qilmoqda. Ayniqsa, ushbu tangalarning qaysi hukmdorliklarga tegishli ekani va qanday tarixiy voqeliklar bilan bog'liqligi masalasi ko'ndalang bo'lib turibdi. Ularni shartli o'laroq quyidagicha guruh va variantlarga ajratib tanishib chiqamiz:

### **1-guruhi. Bosma yozuvli (kontramarkli) tangalar.**

Ushbu guruh tangalarini shartli o'laroq quyidagicha variantlarga ajratish mumkin:

**1-variant.** "xoqon" unvonli tangalar:



1

2

**2-tangalar. Av.** Har ikkala tanganing old yuzasida o'ng tomonga qaragan, ikki qanotli toj kiygan Sosoniylar hukmdorining boshi va uning ustida yarim oy va quyosh tasvirlari o'rinni olgan. 1-tangadagi hukmdor tasviridan teparoqda, o'ngda sug'diycha yozuvli kontramark (bosma yozuv) o'rinni olgan bo'lib, x'y'n "xoqon" o'qiladi. 2-tangada esa hukmdorning o'ng tomonida pahlaviy yozuvining izlari saqlangan. Hukmdor tasviridan so'lda va quyida sug'diycha bosma yozuvlar uchrab, birinchisi x'y'n βyu "Ilohiy xoqon", ikkinchisi esa 8'scy βyu "Ilohiy (i)dishchi" yoki "Tish ilohi" o'laroq o'qiladi. **Rv.** Tangalarning orqa yuzasida o'rtada otashdon

va uning atrofida tik turgan kohinlar, ularning tepasida besh qirrali yulduz va yarim oy tasvirlari o'rin olgan. Saqlanish joyi: [www.zeno.ru](http://www.zeno.ru) - #216231, #125612; O'lchami: -, -; Salmog'i: 3,34 g., 3.4 g.

**2-variant.** "xoqon" va "tegin" unvonli tangalar:



3



4



**3-4-tangalar.** Av. Har ikkala tanganing old yuzasida yuqoridagi hukmdor tasviridan anchagina farqli qiyofadagi o'ng tomoniga qaragan, ikki qanotli toj kiygan Sosoniylar hukmdori boshi va uning ustida yarim oy va quyosh tasvirlari o'rin olgan. 3-tangadagi hukmdor tasvirining o'ng, so'l va quyida sug'diy bosma yozuvlardan o'ngdagisi d'scy βyu "Ilohiy (i)dishchi" yoki "Tish ilohi", so'ldagisi tky(n) "tegin", quyidagisi esa x'y'n βyu "Ilohiy xoqon" shaklida o'qiladi. 4-tangadagi tasvirning to'rt yonida 4 ta bosma yozuv o'rin olgan bo'lib, quyidagicha o'qiladi: tepadan o'ngdagisi x'y'n βyu "Ilohiy xoqon", tepadan so'ldagisi tk'y'n "tegin", quyida o'ngdagisi d'scy βyu "Ilohiy (i)dishchi" / "Tish ilohi", hukmdor tasviri ostidagi yozuv esa k-'ns yoki k-s'n(?). Rv. Tangalarning orqa yuzasida yuqoridagi tangalardagiga o'xshash tasvirlar o'rin olgan. Saqlanish joyi: [www.zeno.ru](http://www.zeno.ru) - #125489, #151335; O'lchami: -, 25-29 mm; Salmog'i: 3,6 g., 3.22 g.

**3-variant.** "tegin" unvonli tangalar:



5



6

**5-6-tangalar.** Av. Tangalarning old yuzasida yuqoridagi hukmdor tasviridan anchagina farqli qiyofadagi o'ng tomonga qaragan, ikki qanotli toj kiygan Sosoniylar hukmdorlarining boshi va uning ustida yarim oy va quyosh tasvirlari o'rin olgan. 5-tangada hukmdor tasvirining tepe qismida, o'ng va ost qismida bosma

yozuylar joylashgan. Tepa qismidagi sug'diy yozuv *tk'yn* "tegin", o'ngdasi *pyškwr* (haligacha ma'nosi aniqlanmagan ibora), quyidagisi esa Əşcy βyu "Ilohiy (i)dishchi" / "Tish ilohi" shaklida o'qiladi. 6-tangadagi bosma yozuylar quyidagicha o'qiladi: o'ngdagi yozuv *tk'yn* "tegin", *pyškw(r)* (5-tangadagi bilan bir xil haligacha ma'nosi aniqlanmagan ibora). Rv. Tangalarning orqa yuzasida yuqoridagi tangalardagiga o'xshash tasvirlar o'rinni o'lgan. Saqlanish joyi: [www.zeno.ru](http://www.zeno.ru) - #203267; #208970; Salmog'i: 3,45 g., 3,36 g.

**4-variant.** "tegin" va "tarxon" unvonli tangalar:



7



8



9



**7-9-tangalar. Av.** Tangalarning old yuzasida yuqoridagi hukmdor tasvirlaridan anchagina farqli qiyofadagi o'ng tomonga qaragan, ikki qanotli toj kiygan Sosoniy hukmdorlari boshi va uning ustida yarim oy va quyosh tasvirlari o'rinni o'lgan. 7-tangada hukmdor tasviri tepe qismining o'ng va chap tomonida hamda hukmdor boshining old tomonida bosma yozuylar joylashgan bo'lib, o'ngdagisi *tk'yn* "tegin", chapdagisi βyu "Ilohiy", uchinchisi esa *trx'n* "tarxon" o'laroq o'qiladi. 8-tangada hukmdor yelkasining o'ng va chap yonida joy o'lgan bosma yozuylar quyidagicha: o'ngdagi yozuv *tk'yn* "tegin", chapdagisi *trx'n* "tarxon" [Бабаяров 2013, 145-152]. 9-tangada 4 ta bosma yozuv o'rinni o'lgan bo'lib, hukmdor tasvirining tepasidagi *trx'n* "tarxon", chapdagisi *tkyn* "tegin", o'ngdagisi *pyškwr*, pastdagisi esa Əşcy βyu "Ilohiy (i)dishchi" / "Tish ilohi" o'laroq o'qiladi. **Rv.** Tangalarning orqa yuzasida yuqoridagi tangalardagiga o'xshash tasvirlar o'rinni o'lgan. Saqlanish joyi: [www.zeno.ru](http://www.zeno.ru) - #173012, #28789, #86936; O'lchami: 27-5-28 mm, 30 mm, -; Salmog'i: 3,15 g., 3,38 g.

**5-6-variantlar.** "Ilohiy (i)dishchi?" yoki "Tish ilohi" iborasi va "hukmdor" unvonli tangalar:



10



11



**10-11-tangalar.** Av. Tangalarning old yuzasida yuqoridagi hukmdor tasviri birmuncha farqli qiyofadagi o'ng tomonga qaragan, ikki qanotli toj kiygan Sosoniy hukmdorining boshi va uning ustida yarim oy va quyosh tasvirlari uchraydi. 10-tangadagi hukmdor tasvirining old (o'ng) tomonidagi sug'diy yozuv *pyškw(r)*, ost qismidagisi esa δšcy βyu "Ilohiy (i)dishchi" / "Tish ilohi" o'laroq o'qiladi. 11-tangada esa hukmdorning boshidan o'ngda baqtriy yozuvida "hukmdor", undan quyiqaqda sug'diycha *xωβ* "hukmdor" so'zlari o'rinn olib (teskari yozilgan), hukmdor boshining orqa tomonida romb ko'rinishidagi tamg'a uchraydi. Rv. Tanganing orqa yuzasida yuqoridagi tangalardagiga o'xshash tasvirlar o'rinn olgan. Saqlanish joyi: [www.zeno.ru](http://www.zeno.ru) – #199529, #43496; O'lchami: 26-28 mm, 24.0-25.2 mm; Salmog'i: 3.63 g., 2.68 g.;

**7-variant.** Turgash xoqonligi tamg'asi bosilgan tangalar:



12



13



**12-13-tangalar.** Av. Tangalarning old yuzasida yuqoridagi hukmdor tasviridan birmuncha farqli qiyofadagi o'ng tomonga qaragan, ikki qanotli toj kiygan Sosoniy hukmdorining boshi va uning ustida yarim oy va quyosh tasvirlari o'rinn olgan. 12-tangada hukmdor boshining o'ng yonida sug'diy yozuvda *x'γ'n* "xoqon" unvoni, hukmdor boshidan quyiqaqda ☰ ko'rinishidagi tamg'a, 13-tangada esa hukmdor boshining o'ng va so'l yonida ☱ ko'rinishidagi 2 ta tamg'a, hukmdor boshidan quyida esa sug'diy yozuvda δšcy βyu "Ilohiy (i)dishchi" / "Tish ilohi" so'zlari o'rinn olgan. Rv. Tanganing orqa yuzasida yuqoridagi tangalardagiga o'xshash tasvirlar bor.

**2-guruh. To'xoriston hukmdorliklarining mahalliy tangalari.**

Ushbu guruh tangalarini ham shartli o'larоq quyidagicha variantlarga ajratish mumkin:

**1-variant. “Farn xuvu”** “[Qutlug' hukmdor]” unvonli tangalar (orqa tomoni):



14



15



**14-15-tangalar.** Av. Tangalarning old yuzasida to'g'riga qaragan hukmdor va malika boshi va ularning ustida yarim oy va quyosh tasvirlari o'rин olgan. Rv. Tangalarning orqa yuzasida ♀ shaklidagi tamg'a va uning atrofida sug'diy yozuv joylashgan. 14-tangadagi yozuv teskari yozilgan bo'lib, oynada qaralganda quyidagicha to'g'rilanib o'qiladi: tamg'aning o'ng tomonidagisi – *rrn* "farn" (qut), so'l tomonidagisi – *xw* (β) "xuv" (hukmdor). 15-tangadagisi odatdagiday yozilgan bo'lsa-da, yozuvlar to'liq saqlanmaganligi tufayli tamg'aning o'ng tomonidagisini hozirchalik so'roq belgisi ostida *rrnw-γ/k* (..) "farn..." (qut...) va tamg'aning chapdagisini (*x*)*wβw* "xuvu" (hukmdor) o'larоq o'qimoqdamiz. Saqlanish joyi: Shaxsiy kolleksiya, [www.zeno.ru](http://www.zeno.ru) - #194336; O'lchami: 19.5 mm.

**2-variant. “Farn xuvu”?** “[Qutlug' hukmdor]” unvonli tangalar (o'ng tomoni):



16



17

**16-17-tangalar.** Av. Tangalarning old yuzasida to'g'riga qaragan hukmdor va malika boshi va ularning ustida yarim oy va quyosh tasvirlari o'rın olgan. 16-tangadagi qo'shaloq tasvirning tagida sug'diy yozuv teskari yozilgan bo'lib, oynada qaralganda chamasi quyidagicha o'qiladi: *tyw'r'k [xwβ]* "To'xor hukmdori"? 16-tangadagi qo'shaloq tasvirning so'l tomonida *xwβ* "xuv" (hukmdor) so'zi uchraydi. Rv. 16-tanganing orqa yuzasida ⚭ shaklli tamg'a o'rın olgan bo'lib, yozuv uchramaydi, 17-tanganing esa teskari tomonining rasmi topilmadi. Saqlanish joyi: [www.zeno.ru](http://www.zeno.ru) - #27992, Smirnova 1981: 504; O'lchami: 23 mm; Salmog'i: 1,47 g.

### 3-guruh. To'xoriston yabg'ulari tangalari.

**1-Variant.** "Farn" (qut) so'zi o'rın olgan tangalar:



18



19

**18-19-tangalar.** Av. Tangalarning old yuzasida o'ngga qaragan hukmdor tasviri va uning old (o'ng) tomonida sug'diy yozuvda *rrn* "farn" (qut) iborasi uchraydi. Rv. Tangalarning orqa yuzasida Choch vohasida bostirilgan G'arbiy Turk xoqonligi tangalaridagi bilan birday ⚭ / ⚮ ko'rinishidagi tamg'a o'rın olgan bo'lib, yozuv uchramaydi. Saqlanish joyi: [www.zeno.ru](http://www.zeno.ru) - #77536, #48390; O'lchami: -, -; Salmog'i: -, 1,3 g.

**1-Variant.** "Xoqon" (?) unvonli tanga:



20



21

**20-21-tangalar.** Av. 20-tanganing old yuzasida yuqoridagi 1-variantdagi o'xhash, biroq ancha farqli qiyofadagi o'ngga qaragan, peshonasi yaqinida yarim oy o'rin olgan hukmdor tasviri va uning old (o'ng) tomonida sug'diy yozuvda  $x'\gamma'n$  "xoqon" (?) unvoni o'rin olgan. Ushbu tangalarning old tomonida 18-19-tangalarga tasviriy jihatidan yaqin, biroq anchagina farqli qiyofadagi o'ngga qaragan hukmdor tasviri uchrab, birorta yozuv ko'zga tashlanmaydi. **Rv.** 20-tanganing orqa yuzasida Choch vohasida bostirilgan G'arbiy Turk xoqonligi tangalariga xos shaklli tamg'a bo'lib, yozuv mav-jud emas. 21-tangada esa 20-tangadagi tamg'a bilan yaqin o'xhashlikka ega, biroq birmuncha farqlanuvchi shaklidagi tamg'a uchraydi. Tamg'a atrofidagi unchalik yaxshi saqlanmagan sug'diycha yozuvni hozircha shartli o'larоq *rrn* ( $\beta\gamma\mu$ )  $x'\gamma'(n)$  "Ilohiy qut (sohibi) xoqon" deb o'qimoqdamiz. Saqlanish joyi: [www.zeno.ru](http://www.zeno.ru) - #221945; #179791; O'lchami: 18 mm, 23 mm; Salmog'i: 1,86 g, 1,5 g.

**1-Variant.** Yozuvsiz (anepigrafik) tangalar (Bu turkumdagи tangalarda birorta yozuv uchramasa-da, G'arbiy Turk xoqonligi bilan bog'liq ayrim masalalarga oydinlik kiritadigan tomonlari borligini ko'zda tutib bu yerda keltirib o'tdik):



22



23



**22-23-tangalar.** Av. O'rtasida dumaloq teshik o'rin olgan ushbu tangalarning o'ng tomonida Choch vohasida bostirilgan *c'cynk xw $\beta$ w tk'yn* "Choch hukmdori tegin" unvonli tangalardagi tamg'alar bilan yaqin o'xhash tamg'a () o'rin olgan. **Rv.** Tangalarning orqa tomonida birorta belgi yoki yozuv yo'q. Saqlanish joyi: [www.zeno.ru](http://www.zeno.ru) - #211559, #27691; O'lchami: 24 mm, 25 mm. Salmog'i: 1,85 g.; 4.2 g.

**4-guruh. To'liq aniqlanmagan tangalar.****1-Variant.**

24

**24-tanga. Av.** Tanganing old yuzasida  $\uparrow$  shaklidagi islomdan oldingi Termizshohlar sulolasi tamg'asiga o'xshash tamg'a va uning o'ng tomonida tik holatda yozilgan sug'diycha yozuv o'rin olgan. Yozuv nisbatan yaxshi saqlangan bo'lishiga qaramasdan aynan qanday ma'nodagi so'z (unvon yoki ism) ekanligi masalasi ochiq qolmoqda. Yozuv chamasi quyidagicha o'qiladi: ' $r\beta wy$  / ' $w\delta wy$  /  $tw\delta w_n$  "Tudun"? **Rv.** Tanganing teskari tomonida ustma-ust yozilgan uch qator sug'diy yozuv uchrab, ulardan o'rta qatordagisi  $xw\beta w$  "hukmdor" o'laroq o'qiladi. Yozuvlarni taxminan shu tarzda o'qish mumkin: ' $w\dots | xw\beta w | swnywk / cwry\beta k$ ? "... hukmdor Cho'rbek?". Saqlanish joyi: www.zeno.ru - #117760; O'lchami: 20.7-22.2 mm; Salmog'i: 2.8 g.

**2- variant.**

25

**25-tanga. Av.** Xitoy tangalariga taqlidan o'rtasi to'rtburchak teshik va uning atrofida sug'diy yozuvdagi 3 ta so'zdan iborat jumla o'rin olgan. Ulardan so'ldagisi taxminan  $xw\beta w$  "hukmdor" o'laroq o'qiladi. Qolganlarini o'qish qiyinchilik tug'diradi. **Rv.** Tanganing teskari yuzasida to'rtburchak teshikning so'l tomonida  $\uparrow$  shaklidagi islomdan oldingi Termizshohlar sulolasi tamg'asiga o'xshash tamg'a, o'ng tomonida esa sug'diy yozuvda va uning o'ng tomonida tepadan quyiga qarab yozilgan sug'diycha yozuv o'rin olib,  $rrn$  "farn" (qut)

o'larоq o'qiladi. Saqlanish joyi: www.zeno.ru - #57521; O'lchami: 1.6 g.; Salmog'i: 17.7 mm.

**3- variant.**



26

**26-tanga. Av.** Tanganing o'ng yuzasida sochi yelkasigacha tushgan, dumaloq yuzli, soqolsiz hukmdor tasviri o'rin olgan. **Rv.** Tanganing teskari yuzasida **¤** shaklidagi Eftaliylar sulolasi tamg'asi va uning o'ng tomonida tepadan quyiga tik yozilgan sug'diycha yozuv o'rin olib, *xwβ* "hukmdor" o'larоq o'qiladi. Saqlanish joyi: www.zeno.ru - #179790; O'lchami: 24 mm; Salmog'i: 2.7 g.

**Sug'diy yozuvli To'xoriston tangalarining o'rganilishi**

To'xoriston tangalari bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar ko'lami uncha keng emas. O'tgan asrning boshlaridan to bugungi kungacha ko'proq G'arb olimlari baqtriy va pahlaviy (o'rta fors)cha yozuvli To'xoriston tangalarini o'rganishgan bo'lib, o'lkaning sug'diy yozuvli tangalari tadqiqotchilar nazaridan deyarli chetda qolgani ko'zga tashlanadi. Bu turdagи tangalarning nisbatan oz topilishi ham buning bosh sabablaridan biridir. To'xoriston tangalari bo'yicha yirik mutaxassis R. Gyobl 1960-yillardagi izlanishlarida sug'diy yozuvli tangalarga qisqacha to'xtalib o'tgan edi [Göbl 1967]. Taniqli numizmat E. V. Rtveladze esa islomdan oldingi To'xoriston tangalari bo'yicha izlanishlar olib borish jarayonida baqtriy tilli tangalar bilan birga ayrim sug'diy yozuvli tangalarni ham keltirib o'tadi [Ртвaledзе 1987, 140-145; Ртвaledзе 2006, 119]. O'z vaqtida O'rta Osiyo tangalari bo'yicha keng ko'lamlı izlanishlar yuritgan Y. V. Zeymal ham bu masalaga to'xtaladi [Zeymal 1995, 122-127]. O'lkaning sug'diy yozuvli tangalarini, aniqrog'i, sirtiga sug'diy yozuv keyinchalik bosilgan (kontramarkli) Sosoniylar Eroni tangalarini ilk o'larоq o'rganganlardan biri V. A. Livshits va keyinchalik L. S. Baratova ayrim tanga yozuvlarini γγ'n «xoqon» va *tk'yn / tkyn* "tegin" o'larоq o'qib, ularni qadimgi turklar bilan bog'lagan, ba'zi tangalardagi sug'diy yozuvni esa *tšβ'n* shaklida o'qigan va uni qadimgi eroniy elatlar talqinidagi Tish ilohi bilan solishtirgan edilar [Kljaštornyj, Livšic

1972, 81-82; Баратова, Лившиц 2002, 21-26]. Biz esa yana bir qator tangalarni aniqlash bilan birga *tšβ'n* so'zini *trx'n* "tarxon" shaklida o'qib, uni Turk xoqonligidagi yuqori unvonlar bilan bog'lagan, bu o'qishimiz taniqli eronshunos N. Sims-Vilyams tomonidan qo'llab-quvvatlangan edi.

O'z vaqtida biz ham old tomonida o'ngga qaragan hukmdor tasviri, teskari tomonida esa Chochda bostirilgan G'arbiy Turk xoqonligi tangalaridagi  ko'rinishidagi tamg'alar (*qar*. 1-rasm. 4) bilan deyarli bir xil tamg'a o'rin olgan 17-18-tangalardagi sug'diy yozuvni *prn* "qut", qo'shaloq portretli tangalardagi yozuvni esa *prn* *xwβw* "Ilohiy hukmdor" o'laroq o'qigan, deyarli bir vaqtning o'zida ham Choch, ham To'xoriston tangalarida qadimgi turkcha unvon va tamg'alarining uchrashidan kelib chiqib, geografik tomonidan bir-biridan ancha uzoq joylashgan har ikkala o'lkada bunday tangalar bostirilishini Turk xoqonligi bilan bog'lab tushuntirgan edik [Бабаяр 2007, 193; Бабаяров, Кубатин 2010, 3-13; Babayarov 2017, 7-12].

O'tgan yili numizmat A. Musakayeva va arxeolog A. Berdimurodov Sazag'on (Pastdarg'om / Samarcand)dan topilgan tangalar orasida sirtiga sug'diy yozuv bosilgan sosoniy tangalar bo'yicha maxsus maqola yozib, bu turkum tangalarning bir necha yangi tiplarini aniqladilar. Biroq ular bu turkum tangalarda sug'diy yozuv va turkiy unvonlar uchrashi aynan qanday tarixiy voqeliklar bilan bog'liqligi masalasiga to'xtalmaganlar [Маршаков, Бердимурадов 2018, 137-144].

### **Tangalarning yozuv bichimi (orfografiyasi)**

Ushbu tangalardan o'rin olgan yozuvlarning barchasi sug'diy yozuvning ilk o'rta asrlarda Sug'd o'liasi va unga qo'shni Choch, O'tror, Ustrushona, Farg'ona, Yettisuv, Sharqiy Turkiston va Mo'g'uliston hududlarida keng qo'llanilgan turi – yugurik (kursiv) yozuv turida bitilgan bo'lib, ular orasida *x'γ'n* "xoqon", *tk'yn* "tegin", *trx'n* "tarxon" kabi qadimgi turkcha unvonlar va *xwβ* / *xwβw* "hukmdor", *rrn* "farn", *βyu* "ilohiy" singari sug'diycha unvon va epitetlar aniqtiniq yozilgani bilan ajralib turadi. Yuqorida keltirilgan tangalardagi eski turkcha unvonlarning, ayniqsa, "xoqon" unvonining yozilishi (20-tanga bundan istisno) Choch, Farg'ona, Sug'd (Samarcand) va O'trorda bostirilgan G'arbiy Turk xoqonligiga to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita bog'liq tangalardagi yozuv bilan deyarli birday (*solishtiring*. 1-rasm. 4, 9-11, 13-15) [Смирнова 1981 341, 391-393; Ртваледзе 2006, 58, 78-86; Бабаяров 2007, 40-52]. Shu o'rinda To'xoriston tangalarida qadimgi turkcha "tegin" unvonining Choch Teginlari

(605-750) tangalaridagi kabi *tk'yn* va *tkyn* ko'rinishida turlicha yozilganini ham aytib o'tish kerak (1-rasm. 5-6) [Смирнова 1967, 40; Баратова, Лившиц 2002, 21; Бабаяров 2007, 40-41, 48]. Qadimgi turkcha "tarxon" unvonining yozilishi esa ushbu unvonning sug'diy va keyinchalik arab yozuvi asosidagi forsiy va turkiy yozuvlaridagi yozilish shakli bilan uyg'unlikka ega (t-r-x-a-n).

To'xoriston tangalaridagi boshqa bosma yozuvlar: δšcy, pyškwr, k-'ns yoki k-s'n(?) va yana bir qator so'zlar hozircha to'la-qonli o'qilmagan so'zlar sirasidandir.

### **Tasvirlardagi o'ziga xosliklar (ikonografiya)**

Birinchi guruhdagi bosma yozuvli (kontramarkli) tangalardagi tasvirlar ilk o'rta asrlarda Eronda bostirilgan Sosoniy tangalaridagi turli hukmdorlar tasvirlari bilan deyarli birday bo'lib, ularning ko'pchiligi Peroz draxmasidagi tasvirga yaqin keladi. Ikkinci guruhdagi qo'shaloq portretli To'xoriston (Chag'oniyon?) tangalari esa ulardan butunlay boshqacha. Ularning chizilish shakli – ko'z va yuz tuzilishi, soch turmag'i VI-VIII asrlarda Choch, Sug'd, O'tror va Buxoroda bostirilgan qadimgi turk tangalariniki bilan yaqin o'xshashlikka ega: biroz qisiq yoki bodomsimon ko'z, yumaloq yuzlilik, nisbatan uzun soch, boshlari ustida yulduz yoki quyosh o'rin olgan yarim oy tasvirlari [Баратова 2005, 418; Бабаяров 2007, 11, 14, 18-19, 30; Бабаяров 2014, 70-75]. Ushbu 5 hukmdorlikda deyarli bir vaqtida bostirilgan tangalarda tamg'alar farqli bo'lismiga qaramay (Choch - ⚭ / ⚮ / ⚯; Sug'd - ⚩; O'tror - ⚪ / ⚫; Buxoro - ; To'xoriston - ⚯), ham hukmdor, ham malika (xotun) tasvirlarining biroz qisiq ko'zli, yumaloq yuzli o'laroq eski turklarni eslatadi (1-rasm. 1, 4, 13-15). Ayrimlari G'arbiy Turk xoqonligi bilan (ayniqsa, Choch va Sug'd tangalari), ayrimlari esa xoqonlikka bilvosita bog'liq sulolalarga tegishli. Ushbu tangalarning barchasida hukmdorning uzun sochli va soqolsiz tasvirlangani va shu tomoni bilan yozma manbalardagi ma'lumotlarga yaqin kelishi diqqatni tortadi [Бабаяров, Кубатин 2013, 47-58]. Shunga qaramay, To'xoriston tangalaridagi tasvirlarning o'ziga xos tomonlari ham ko'zga tashlanadi: birinchidan, ushbu tangalardagi erkak tasvirining mo'ylov shakli Termiz tangalaridagi tasvirlarga o'xshab ketsa-da, Choch va Sug'd tangalaridagidan farqli o'laroq To'xoriston tangasida ayol uch qirrali qalpoqda tasvirlanmagan. Shu va boshqa tomonlari bilan ushbu tangalardagi portretlar ilk o'rta asrlar To'xoriston tasviriy san'atiga tegishli ekanligi anglashiladi.

Uchinchi guruhdan o'rin olgan o'ngga qaragan hukmdor

tasvirlari esa Choch, Farg'ona, Sug'dning qadimgi turkiy tangalariidan ancha-muncha ajralib turadi. Bu turdag'i To'xoriston tangalari da biroz qisiq ko'zlilik, yumaloq yuzlilik deyarli ko'zga tashlanmaydi. Hukmdorlar ko'proq jingalak sochli, qirra burunli qilib chizilgan bo'lib, shu va boshqa tomonlari bilan ushbu tasvirlar ilk o'rta asrlar To'xoriston tasviri san'atini eslatadi (1-rasm. 16-17).

### To'xoriston tangalaridagi tamg'alar masalasi

Yuqorida keltirilgan tangalar turkumining 5 tasida biri-ikkinchisidan ajralib turuvchi tamg'alar uchraydi. Ular quyidagicha: 1) ⚡, 2) ⚡ / ⚡ / ⚡, 3) ⚡, 4) ⚡, 5) ⚡.

Qizig'i shundaki, ushbu tamg'alardan 3 tasi 6-8 asrlarda G'arbiy Turk xoqonligi tomonidan Chochda bostirilgan tangalardagi tamg'alar bilan deyarli bir xil bo'lib, ular o'zaro solishtirilganda quyidagicha o'zaro o'xhashlik ko'zga tashlanadi: ⚡ / ⚡, ⚡ (⚡), ⚡ / ⚡ (Choch) - ⚡, ⚡ (⚡ / ⚡), ⚡, ⚡ (To'xoriston).

To'xoriston va Choch tangalaridagi tamg'alar qiyosiga atab yozgan maqolamizda Chochning ⚡, ⚡, ⚡, ⚡ / ⚡, ⚡ / ⚡ ko'rinishdagi tamg'aleri bilan To'xoristonning ⚡ ⚡ ⚡ ⚡ ⚡ ⚡ ko'rinishdagi tamg'aleri o'zaro o'xhashligiga urg'u bergen [Бабаяров, Кубатин 2010, 3-13; Babayarov 2017, 5-20], shuningdek, ushbu tamg'alar orasida ⚡ ko'rinishidagi tamg'a va uning variantlaridan birining (⚡) qadimgi turk va sug'diy yozuvli "xoqon" unvonli Farg'ona tangalarida (⚡) va Sug'dning kichik hukmdorliklaridan biri – Panch tangalaridagi (⚡ / ⚡) tamg'alar bilan ham yaqin o'xhashlik borligiga to'xtalib o'tgan edik. Shuningdek, Chochda bostirilgan old yuzida ikki o'rkachli tuya tasviri, orqa yuzida ⚡ / ⚡ ko'rinishdagi tamg'a va uning tegrasida sug'diy yozuvda *prn βyy x'γ'n* "Ilohiy qut (sohibi) xoqon" unvoni uchraydigan G'arbiy Turk xoqonligi tangalari bilan old yuzida qo'shaloq tasvir (hukmdor va malika), orqa yuzida esa ⚡ tamg'a va uning yonida sug'diy yozuvda *prn xwβw* "Ilohiy hukmdor" so'zleri o'rin olgan To'xoriston, aniqrog'i, Chag'oniyon tangalarini o'zaro solishtirib, ular orasida qandaydir bir bog'liqlik borligiga to'xtalgan edik. Qizig'i shundaki, Sosoniylar Eroni tangalari sirtidagi bosmalar orasida ⚡ ko'rinishidagi tamg'a va baqtriycha yozuv uchrashi (*qar. zeno.ru - #20913*) Chag'oniyon hukmdorlarining To'xoristondagi boshqa turkiy sulolalar boshqaruvchilari kabi Sosoniylar tangasining o'z hududida muomalada bo'lishini ta'minlashga intilganliklarini ko'rsatadi.

Shu o'rinda E. V. Rtveladzening keyingi yillardagi izlanishlarida To'xoristonning Guftan (G'arbiy Surxondaryo) hukmdorligi

tangalarida uchraydigan ko'inishdagi tamg'alarning Turk xoqonligi va ushbu o'lkadagi turkiy sulolalar bilan bog'liqligiga urg'u bergenini aytib o'tish kerak [Ртвaledзе 2006, 119].

Yuqorida keltirilgan har uchala hukmdorlik – Choch, Farg'ona va Panch yozma va numizmatik materiallardan ma'lum bo'lishicha, kelib chiqishi Turk xoqonligining boshqaruvchi xonadoni – Ashina sulolasiga mansub yoki xoqonlik bilan yaqin qarindoshlikka ega turkiy sulolalar tomonidan boshqarilgan bo'lib [Лившиц 1979, 56-69; Skaff 2002, 364-372; Бабаяров 2007, 34-35; Stark 2008, 210-211, 224-225], ushbu sulolalar tangalarida turkiy unvon va o'xhash tamg'alar o'rinni o'zining tarixiy negizlariga ega. Demak, To'xoriston tangalaridagi tamg'alarning ko'pchiligi ushbu hukmdorliklarning tamg'alarini bilan yaqin o'xhashligi ham o'sha chog'larda o'lkani turkiy sulolalar boshqarganligi bilan uzviy bog'liqdir. Hech bo'limganda ular orasida tamg'ali tangalar To'xoriston Yabg'ulari sulolasi bilan, ko'inishdagisi esa To'xoristondagi yirik hukmdorliklardan biri – Chag'oniyon bilan bog'liq bo'lsa kerak. Bunday deyishimizning negizida har ikkala tamg'aning G'arbiy Turk xoqonligi (Choch) tangalaridagi "xoqon" unvonli tangalardagi tamg'alar bilan yaqin o'xhashligi yotadi. Bu davrda To'xoristonda G'arbiy Turk xoqonligining yana bir tarmog'i – Yabg'ular sulolasi boshqaruvda bo'lsa, Chag'oniyonda esa kelib chiqishi xoqonlikka borib taqaluvchi sulola boshqaruvda edi (Бобоёров 2003, 3-10; Джуманиёзова 2018, 15-17).

Vaxshdan topilgan tangalardagi tamg'alar () ham o'z tarixiy negiziga ega. VII–VIII asrlarda Choch Teginlari (605-750) tomonidan bostirilgan *tk'yn / tkyn* "tegin" unvonli tangalarda ham yuqorida keltirilgan 22-23-tangalar bilan yaqin o'xhashlikka ega ko'inishdagi tamg'a o'rinni olgan bo'lib [qar. Babayarov 2007, 40-44], ushbu tamg'a G'arbiy Turk xoqonligi tangalari (Choch) tamg'alaridan birining () birmuncha o'zgarishga uchragan turidir (1-rasm. 1-3, 5-6) [Бабаяров 2019, 356-357]. Bu turkumdagi tangalarning ko'pchiligi tarixiy Vaxsh (Tojikiston) hukmdorligi tuproqlaridan topilayotganligi ularni islomdan oldin bu yerni boshqargan turkiy sulola bilan bog'lashga imkon beradi. Shuningdek, bu tamg'alar (, ) G'arbiy Turk xoqonligining boshqa bir tarmog'i bo'l mish Farg'onanining Ashina xonadoniga tegishli qadimgi turk-run va sug'diy yozuvli "xoqon" unvonli tangalardagi tamg'alar () bilan yaqin o'xhashlikka egaligi ko'zga tashlanadi (qar. 1-rasm. 7-8) [Babayev 2008, 136-46]. Xitoy va arab manbalaridan bu davrda Vaxsh hamda unga yaqin Shuman va Axarun kabi kichik hukmdorliklar

boshqaruvida turkiy sulola turgani anglashiladi [Grenet, Vaissiere 2002, 177; Бобоёров 2002, 10-11].

To'xoriston tangalaridagi, aniqrog'i, ushbu o'lkaza qarashli Termiz hukmdorligiga tegishli tangalarda o'rin olgan **†** ko'rinishidagi tamg'aning G'arbiy Turk xoqonligining *trðw x'γ'n* "Tardu xoqon" unvonli tangalaridagi tamg'a (**ܒ** / **ܬ**) va Panch hukmdorligining yuqorida keltirilgan tangasidagi ikkinchi tamg'asi (**✚**) bilan birmuncha o'xhashligi bordek ko'rindi. Biroq bu o'xhashlik tasodifiy bo'lsa kerak.

Sug'diy yozuvda *x'γ'n* "xoqon" unvoni yoki δšcy βyu "Ilohiy (i)dishchi" / "Tish ilohi" iboralari va **ܗ** ko'rinishdagi tamg'a uchrashi (12-13 rasmlar) bir qator tadqiqtchilar urg'u bergenidek, Turgash xoqonligi bilan bog'liqdir. Yozma manbalarda G'arbiy Turk xoqonligining ittifoqchi urug'laridan biri bo'lgan turgashlarning VIII asrning ilk choragida G'arbiy Turk xoqonligi o'rnini egallagani va shu asrning 30-yillarida Choch, Sug'd, Buxoro, To'xoriston hukmdorliklariga bosh bo'lib, arablarga qarshi safar uyuştirgani va To'xoristonga kelganliklari tilga olinadi [Esin 1977, 324; Кляшторный 1985, 165–168]. Demak, Turgash xoqonlari ham G'arbiy turk xoqonlari kabi Sosoniyalar tangasining o'z hududida qo'llanilishini ta'minlash uchun tangalarga o'z tamg'asini bosgan bo'lib chiqadi.

To'xoriston Yabg'ularining boshqaruvi markazi Balx bo'lgan chog'larda esa tangalarning ko'pchiligi pahlaviy yozuvida *ybgw bhlk'n* "Balx / Baqtriya yabg'usi = To'xoriston yabg'usi" so'zlari o'rin olgan edi [Göbl 1967, 182-183]. Aytib o'tish kerak, bu turkumdag'i tangalarni ilk bor o'rgangan R.Gyobl ularni qadimgi turklar bilan bog'lamagan bo'lsa-da, ko'pchilik tadqiqtchilar ushbu tangalarning To'xoriston Yabg'ulariga tegishli ekanligini olg'a surishgan [Esin 1972, 348-350, n. 140; Harmatta, Litvinsky 1996, 367-401].

### **To'xoriston tangalarida qadimgi turkcha unvonlar o'rino olishining tarixiy ildizlari**

Xo'sh, yuqorida keltirilgan numizmatik topilmalar aynan qanday tarixiy voqeliklar bilan bog'liq? Albatta, 10 dan ortiq turdag'i tangalarda sug'diy yozuv va turkiy unvonlarning uchrashi shunchaki tasodif bo'lmasa kerak. Ushbu tangalarning ko'pchiligi bugungi O'zbekistonning janubiy hududlaridan, bir vaqtlar "To'xoriston" yoki "Shimoliy To'xoriston" deb bilingan tarixiy o'lkaning bir qismi bo'lmish bugungi Surxondaryo viloyati va uning atrof hududlaridan topilayotgani ularning aynan qayerlarda muomalada bo'lganidan darak beradi. Biroq tangalarda uchraydigan hukmdor tasvirlari va

ramziy belgilar ilk o'rta asrlarda Yaqin Sharqda yirik siyosiy kuch sifatida bilingan Sosoniylar Eroniga tegishli bo'lsa-yu, tangalar ustidagi bosma yozuvlar orfografik jihatdan islomdan oldingi davrlarda Amudaryo – Sirdaryo oralig'idagi voha davlatlaridan biri bo'lmish Sug'd konfederatsiyasi, Choch va Farg'ona tangalaridagi sug'diy yozuvlar bilan deyarli bir bo'lsa, bu holatni qanday ochiqlash mumkin? Ustiga-ustak, ushbu tangalardagi unvon ("xoqon", "tegin", "tarxon") va tamg'alar (, , , ) qadimgi turklar bilan, ayniqsa, G'arbiy Turk xoqonligi bilan bog'liq bo'lib chiqsa! Bundan tashqari, To'xoristonning markaziy boshqaruvi (Yabg'ular sulolası) va o'lkaning boshqa bir qator hukmdorliklar (Chag'oniyon, Termiz, Vaxsh va b.) tangalaridagi tamg'alarining Choch vohasida bostirilgan tamg'alar bilan deyarli bir ekanining negizida nima yotadi? Bu kabi o'xshashliklar aynan qanday tarixiy voqeliklar bilan bog'liq? Shuningdek, sug'diy yozuvli ayrim tangalarda  ko'rinishidagi Eftalitlar tamg'asi uchrashi borasida nima deyish mumkin? (qar. 26-tanga).

Bu kabi masalalarga chuqurroq to'xtalishdan oldin To'xoriston tangalari bo'yicha mutaxassislar tomonidan bildirilgan fikrlar bilan tanishib chiqsak. Sug'd tarixi bilimdoni B.Marshakning fikricha, "To'xoristonda Sosoniy tipli tangalarning ustiga sug'diy yozuv zarb qilish an'anasi bu yerda Turk xoqonligi hokimiyati o'rnatilgan paytda amalga oshirilgan. Bundan avval Eftalitlar davrida To'xoristonda rasmiy yozuvlar faqat baqtriy yozuvida olib borilar edi. Turk xoqonligi davrida esa o'lkaning boshida To'xoriston yabg'ulari turgan paytda VII asrda sug'diycha "To'xoriy" (ya'ni, "To'xoristonga oid") iborasi yozila boshlagan [Marşak 2002, 174; Zeymal 1994, 245-267; Zeymal 1995, 122-127]. Turk xoqonligi o'lkani (To'xoriston)ni qo'l ostiga olgach, sosoniy tangalarining muomalada bo'lishiga ruxsat berib yoki yuqoriqoq kursga ega ekanligini tasdiqlab, ular ustiga o'z tamg'alarini bosganlar. Peroz tangalari ustida "tegin" (Turk xoqonligi shahzodasi) va "Deshchi Bag'i" shaklidagi sug'diy jumllari uchraydi. Ba'zan bir tanga sirtida har ikkala unvon birgalikda keladi. Deshchi Turk xoqonligiga xizmat qilgan sug'd amaldorlariga berilgan ism bo'lishi mumkin" [Marşak 2002, 174].

B. Marshakning ushbu qarashlariga qo'shilgan holda shunga urg'u berib o'tish kerakki, Peroz va boshqa Sosoniy hukmdorlari tasvirli kontramark (bosma yozuv)li tangalar asosan Eftalitlar (420-565) va Turk xoqonligi (552-744) davrida To'xoriston va unga qo'shni hududlardagi tarixiy shahar xarobalarida uchraydi [Мусакаева, Бердимурадов 2018, 137-144]. Bosma yozuvlarning muayyan

bir qismi baqtriy yozuvida, sezilarli bir qismi esa sug‘diy yozuvda bo‘lib, asosan, “xoqon”, “tegin” va “tarxon” kabi unvonlardan iborat. Shu o‘rinda savol tug‘iladi, “ushbu unvonlar ham Eftalitlar davlatida, ham Turk xoqonligida qo‘llanilgan, shu bois mazkur tangalarda bosma yozuvlarning o‘rin olishi aynan qaysi saltanat bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin?” Yuqorida keltirib o‘tganimizdek, B. Marshakning To‘xoristonagi Sosoniy tipli tangalar ustiga sug‘diy yozuv zarb qilish an’anasi bu yerda Turk xoqonligi hokimiyyati o‘rnatilgan paytda amalga oshirilgani, bundan oldin Eftalitlar davrida esa To‘xoriston-da rasmiy yozuvlar faqat baqtriy yozuvida olib borilganligi bora-sidagi fikrida jon bordek ko‘rinadi. Shunga qaramay, Eftalitlarning sug‘diy yozuvdan foydalanganmi-yo‘qmi, masalasi haligacha to‘la-qonli yechilmaganini e’tirof etgan holda Turk xoqonligi ushbu yozuvdan ancha keng foydalangani, buni xoqonlikning markaziy hududlari bo‘lmish O‘rxun (Mo‘g‘uliston) va Yettisuv (Janubi-Sharqiy Qozog‘iston – Markaziy Qirg‘iziston) hamda xoqonlik bilan bog‘liq turkiy sulolalar tomonidan boshqarilgan Choch, Farg‘ona va O‘tror (Sirdaryoning o‘rtta oqimi)dagi turkiy unvonli sug‘diycha yozuvli tangalar va turli epigrafik topilmalar tasdiqlashini aytib o‘tishimiz zarur [Kljaštornyj, Livsic 1972, 69-102; Lurje 2010; Бабаяров, Кубатин 2009, 80-83].

Markaziy Osiyo va unga qo‘shti hududlardagi turli tillarda so‘zlashuvchi o‘nlab o‘lkalarni o‘z ichiga olgan Turk xoqonligi (552-744) siyosiy jihatdan eng kuchaygan davrida Uzoq sharqdan to Qora dengizning shimoligacha, Ural tog‘laridan Shimoliy Hindiston va Xurosongacha cho‘zilgan ulkan hududga egalik qilib, ish yuritish va yozishmalarda asosan qadimgi turk-run va sug‘diy yozuvdan foydalangan. Bug‘ut (Mo‘g‘uliston – 581 y.), Ili (Sharqiy Turkiston – 599 y.) bitiktoshlari, Choch/Toshkent vohasida bostirilgan G‘arbiy Turk xoqonligi tangalaridagi *zpyw* “jabg‘u”, *cpyw x’γ’n* “jabg‘u-xoqon” va *x’γ’n* “xoqon”, *twrk x’γ’n* “Turk-xoqon” unvonlari hamda 2 ta xoqon – *trδw x’γ’n* “Tardu xoqon” (576 - 603) va *twn cryw x’γ’n* “Tun yabg‘u-xoqon” (618-630) ismlarining o‘rin olganligi (*qar.* 1-rasm. 1-4) [Бабаяров, Кубатин 2005, 98-102; Бабаяров 2007, 7], ayrim To‘xoriston tangalarida sug‘diy iboralar uchrashi xoqonlikda sug‘diy tilning asosiy rasmiy tillardan biri bo‘lganini ko‘rsatadi [Баратова, Лившиц 2002, 21-23]. Sug‘diy yozuv nafaqat Turk xoqonligining oliy hukmdorlari tomonidan tanga bostirishda qo‘llanilgan, balki Amudaryo – Sirdaryo oralig‘i va unga tutash hududlardagi voha hukmdorliklarida xoqonlik bilan bog‘liq turkiy sulolalar ham o‘z tangalarini ushbu yozuv bilan bostirganlar. Choch teginlari (605-

750) va Choch tudunlari (640-750) tangalarida *tk'yn* “tegin”, *tōwn* “tudun”, Farg'onanining Ashina xonadoni tangalarida *x'γ'n* “xoqon” va O'tror tutuqlari (VII-VIII asrlar) tangalaridagi *δpw twtwx x'γ'n* “Alp xoqon tutuq” unvonli tangalarning sug'diy yozuvda ekanligi buni aniq ko'rsatib turibdi (1-rasm. 5-9, 13-15) [Смирнова 1981, 341, 391-393; Бабаяров 2005, 198; Ртваледзе 2006, 58, 78-86; Бабаяров 2007, 40-52; Бабаяров, Кубатин 2014, 98-100].

Kezi kelganda aytib o'tish kerak, δšcy βyy yoki δysu βyy shaklida yozilgan bosma yozuvdagi birinchi so'zni bir qator tadqiqotchilar qadimgi sharqiy eroniy xalqlarda biror iloha sifatida bilingan “Desi” yoki “Tish” bilan aloqador sanasalar, bir qator izlanuvchilar esa uni qadimgi turkiy “idishchi” (oftobachi) unvoni bilan bog'laydilar. Bizningcha, birinchi qarash nisbatan to'g'riroq bo'lib, ilk o'rta asrlarda bunday nomdagi iloha haqidagi tasavvur Sug'd va To'xoriston aholisi orasida nisbatan ko'proq tarqalgan edi. Aslida δšcy so'zini qadimgi turkcha “idishchi” bilan tenglashtirish mantiqliroq ko'rinsa-da, Turk xoqonligi davrida muayyan bir unvon sifatida bunday unvon uchramasligi bu fikrga shubha bilan qarashni talab qiladi [Кубатин 2014, 91-95, 188]. Agar “ehtimol, xoqonlik unvonlar tizimida aynan shunday unvon bo'lgan-u, bir qator unvonlar kabi u o'z davri yozma manbalarida aks etmay qolgandir”, degan savol tug'ilgan taqdirda ham, mavqe bo'yicha xoqonlik boshqaruvida ancha quyida turishi kerak bo'lgan bunday unvonga o'sha chog'larda ko'pincha yuksak maqomdagagi amaldor – xoqonga nisbatan qo'llanilgan βyy “ilohiy, janob” epiteti qo'shib kelganini qanday ochiqlasa bo'ladi?

Shu o'rinda ushbu epitetning asosan Chochda zarb qilingan G'arbiy Turk xoqonligi tangalarida oliy unvon – xoqon (βyy *twvn x'γ'n* “Ilohiy Tun (tung'ich) xoqon”) va hukmdor ismi (βyy *twn cpγw x'γ'n* “Ilohiy Tun jabg'u-xoqon”) oldida uchrashi, xoqonlikka bilvosita aloqador Choch Teginlari (605-750) va Choch Tudunlari (640-750) tangalarida esa “tegin” va “tudun” unvonlari oldida umuman o'rin olmaganini aytib o'tish kerak (*qar.* 1-rasm. 4-6). Bu holat To'xoristondagi bosma yozuvli tangalarda ham ko'zga tashlanib, yuqorida keltirilgan 3-4-tangalarda βyy *x'γ'n* “ilohiy/janob xoqon” va δšcy βyy “ilohiy Desi / Tish” iboralarining uchrashi, ular bilan bitta tangada o'rin olgan “tegin” unvoni esa buning aksi ko'zga tashlanishida ham o'z ifodasiga ega. Demak, xoqonlikda yuqori mavqega ega *tegin* “shahzoda”lar va *tudun* “dorug'a, noib”lar ushbu epitetni o'z unvonlariga qo'shib ishlata olmagan bir paytda qandaydir bir amaldor – “idishchi”ning undan foydalangani va uni tangalar-

da aks ettirganini, hatto xoqonlar kabi o‘z unvonlari oldiga “ilohiy” sifatini qo‘shib ishlatalishga jur’at etgan, deb ochiqlab bo‘lmaydi. Aksincha, o’sha davr an’analariga ko‘ra iloh va ilohalarning nomlari tangalarda aks ettirilar edi (*mas.* Sug’d tangalarida *nn / nny* “Nana”) [Смирнова 1981, 48-49, 233-255].

Ko‘proq Xitoy yilnomalaridan, qisman esa boshqa (vizantiya, arab, fors) manbalaridan ayon bo‘lishicha, Turk xoqonligi 560-yillarda esa Amudaryo-Sirdaryo oralig‘idagi To‘xoristongacha bo‘lgan voha hukmdorliklarni (Choch, Farg‘ona, Ustrushona, Sug’d, Buxoro, Xorazm), 580-yillarda esa To‘xoriston, Kobuliston va Xurosonning katta bir qismidagi voha hukmdorliklarini qo‘l ostiga oladi [Бичурин 1950 (I), 229; Симокатта 2005, 624]. Arab tarixchisi Dinovari esa Sosoniylar va xoqonlik Haytal (Eftalit)lar davlatini tor-mor qilib, unga tegishli hududlarni o‘zaro taqsimlashgani, turklar Choch, Farg‘ona, Sug’d va Buxoroni qo‘lga kiritgani, Sosoniylar esa To‘xoriston (Chag‘oniyon va h.k.) hamda Kobulistonni o‘ziga olganini qayd etadi [Chavannes 1903, 229; Shaban 1971, 482483]. Shuningdek, Xitoy yilnomalarida Turk xoqonligi 580-yillarda Sug’dga *tegin* tayinlangani, To‘xoristonga bir *tegin* yuborilib, unga tutash hududlar ham u orqali nazoratga olingani tilga olinadi [Taşgil 1995, 88]. 580-yillarida To‘xoriston Turk xoqonligi tarkibiga kiritilgan bo‘lsada, oradan qariyb 40 yilcha vaqt o‘tgachgina bu yerda xoqonlikka to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq sulola tashkil topadi. Xitoycha yozma manbalar (asosan, yilnomalar va Syuan Tszan sayohatnomasi)dan ma‘lum bo‘lishicha, 620-yillarda To‘xoristonni xoqonlik nomidan boshqarayotgan Ashina xonadoni vakili “yabg‘u” unvoniga ega bo‘lib, boshqa xitoy yilnomalarida esa o‘lkani shu yillardan boshlab 750-yillargacha boshqargan 10 ga yaqin hukmdor “yabg‘u” unvonida tilga olinadi. Bundan ko‘rinadiki, 620-yillardan to 750-yillargacha bo‘lgan 130 yil davomida To‘xoristonda Ashina xonadonining bir tarmog‘i bo‘lmish turk yabg‘ulari hukm surgan.

630-yillarda xoqonlik hududlaridan o‘tgan Xitoy rohibi Syuan Tszan *Tu-xo-lo* (To‘xoriston) o‘lkasining 27 ta katta-kichik hukmdorliklardan tashkil topgani, ulardan har birining ayri-ayri o‘z boshqaruvchisi borligi, shu bilan bирgalikda, ularning barchasi To‘xoriston yabg‘usiga bo‘ysunishiga urg‘u beradi. Uning yozishicha, bu paytda To‘xoriston yabg‘usi *Datu she* (Tardu-shad) bo‘lib, u G‘arbiy Turk hukmdori Yabg‘u-xoqon (ya’ni Tun yabg‘u-xoqon) ning o‘g‘li edi. U o‘zini “To‘xor yabg‘usi” deb atab olgani to‘g‘risidagi ma‘lumot Syuan Szan sayohatnomasining qadimgi turk (uyg‘ur)-cha tarjimasida quyidagicha keltiriladi: “toxri yavyu ... m(ä)n tip

ät öz-in /ay/itu (?) söz-lädi” [Тугушева 1991, 68, 202]. Bundan boshqa Xitoy yilnomalarida ham *Tuxolo* (To'xoriston) 27 ta mayda hukmdorlikdan tashkil topgani va ularning barchasi qarorgohi *Xo* (Qunduz)da bo'lgan, kelib chiqishi Ashina xonadoniga mansub *shexi* (turk. *yabg'u*) unvonli hukmdorga bo'ysunishiga urg'u beriladi [Бичурин 1950 (II), 321]. Bu paytda Balx, Termiz, Chag'oniyon, Xuttal, Kumed, Voxon, Shug'non, Qubodiyon, Vaxsh, Shuman, Axarun, Karron, Rub, Samigon, Shuburg'on, Guzgon, Garchiston, Badg'is kabi yarim mustaqil hukmdorliklardan tashkil topgan To'xoristonni turkiy *yabg'ular* boshqarishi arab manbalarida ham eslatib o'tiladi. To'xoristonning xoqonlik tarkibiga kiritilishi boshqalarga nisbatan biroz keyinroq, 580-yillarda amalga oshirilgan bo'lsa-da, bu yerdagi nazorat ancha farqli edi. Xususan, siyosiy boshqaruv markazi ancha uzoqda – Yettisuvda bo'lgan xoqonlik uchun To'xoristonda barcha mayda hukmdorliklar boshini biriktirib, ularni itoatda tutib turuvchi, muayyan bir siyosiy uyushmaga ehtiyoji bor edi. Shu tariqa, sobiq Eftalitlarning siyosiy markazlari Qunduz va Balx xoqonlikning tayanch shaharlariga aylanadi va xoqonlar dastlabki yillardan boshlab bu yerda o'z noiblarini joylashtira boshlaydilar.

Demak, 590-yillar atrofida To'xoriston o'lkasi boshqaruviga Tardu xoqon (576–603) *tegin* unvonli o'g'lini yuborishi, 620-yillarda Tun *yabg'u*-xoqon o'z o'g'li Tardu shadni o'lka boshqaruviga tayinlashi, shu yillardan to 750-yillargacha *Tardu shad* (620?–630), *Tegin-shad* (630–645), *Ishbara yabg'u* (645–650), *Ashina Uchjebo* (653–660), *Kun Ishbara yabg'u* (670–680 (?)), *Nadunili* (700–720), *Qutlug'* *Tun Tardu* (720–730), *Sulayman Qora* (xit. Shiliman Gyalo (750) kabi Ashina sulolasini boshqaruvda bo'lganligi bu yerda o'z izini qoldirgan [Бичурин 1950 (II), 321–322; Chavannes 1903, 155–158; Harmatta, Litvinsky 1996, 373; Ekrem 2003, 138–139]. Bu vaqtida bevosita Ashina xonadoniga taqaluvchi sulolalar tomonidan boshqarilgan Choch va Farg'onadan farqli o'laroq To'xoriston hukmdorlarining *yabg'u* unvoni bilan hukm yuritishlari xoqonlik uchun bu yer alohida ahamiyatga ega bo'lganidan darak beradi. To'xoristondagi mavjud kichik hukmdorliklarning ko'pchiligidagi xoqonlik bilan bog'liq sulolalarning vujudga kelishi ham shu bilan bog'liq bo'lsa kerak. Xususan, Termiz, Chag'oniyon, Balx, Badg'is, Xuttal, Voxon, Vaxsh, Shuman, Axarun, Kumed, Qubodiyon va h.k. lar boshqaruvida turkiy sulolalar turgan [Гафуров 1972, 227; Гойбов 1989, 30–31; Бобоёпов 2002, 10–11].

To'xoristonda Ashina sulolasining vakillarining turishi bilan bog'liq bo'lsa kerak, Yettisuvdagagi xoqonlardan bir qanchasi o'zaro

taxt talashuvlarda yengilgach, ushbu o'lkaza sig'inishgan yoki bu yerni o'z ta'sir doirasiga olishga uringanlar. Masalan, Tun yabg'u-xoqonning o'g'li Sir yabg'uxoqon (631-633), Yuquq Duluxoqon (638-642), Elbi Ishbara Yabg'uxoqon (641-642) va Qapg'on xoqon (691-716) kabi bosh hukmdorlarning To'xoristonga intilganliklari yozma manbalarda o'z aksini topgan [Бичурин 1950 (I), 284-285, 287; Taşaǵıl 1999, 64].

To'xoristonda, aniqrog'i uning ajralmas bir bo'lagi bo'lmish Shimoliy To'xoriston – Chag'oniyon va uning yaqinidagi o'lkalar-Termiz va boshqalarida VII-VIII asrlarda bostirilgan sug'diy yozuvli tangalarda qadimgi turk va sug'diy unvonlar o'rın olishi Turk xoqonligi faoliyati bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Shuningdek, Shimoliy To'xoristonning tarixiy Sug'd o'lkasiga qo'shni bo'lishi, ayniqsa, uning Kesh va Naxshab kabi Janubiy Sug'd bilan yaqin qo'shnichiligi bu yerda sug'diy tilning yoyilishida o'ziga xos ko'prik bo'lgan. Bizningcha, sug'diy tilning xoqonlik davrida Markaziy Osiyo hududi bo'ylab yoyilishi, va bir necha hukmdorliklarda rasmiy til vazifasini bajarganligi, shuningdek, Turk xoqonligi savdo-sotiq va iqtisodiy hayotida Sug'd ma'muriyatining muhim o'rın tutganligi bunga turtki bo'lgan. Sug'diy yozuv va til asosan turk-run yozushi hukmron bo'lgan Mo'g'uliston va Yettisuvdan tashqari, Sirdaryoning o'rta havzalari, Farg'ona va Shimoliy To'xoriston hududlarida keng yoyilishi Turk xoqonligi davriga to'g'ri kelishi ham bu qarashimizni kuchaytiradi.

Sug'diy til va yozuvning asosiy aholisi sug'dliklar bo'lmagan hududlarda ham keng tarqalgani ushbu tilning xoqonlikning asosiy tili vazifasini bajarib, Marvdan to Shimoliy Xitoy va Mo'g'ulistongacha hududlarda *lingua franca* vazifasini ham o'taganini ko'rsatadi. Ayniqsa, Kushon podsholigi davridayoq yunon alifbosi asosidagi sharqiy eroniy tillardan biri – baqtriycha til va yozuvdan ma'muriy til sifatida foydalanilgan To'xoriston hududida sug'diy yozuvning tarqalishi ushbu hududlarning xoqonlik hududiga qo'shib olinishi [Гафуров 1972, 127-129; Гоибов 1989, 25, 30-31] bilan bog'liq edi.

## Xulosa

So'g'diy yozuvli To'xoriston tangalarining sezilarli bir qismi to'g'ridan-to'g'ri G'arbiy Turk xoqonligi (568-740), kichik bir qismi esa Turgash xoqonligi (699-766) bilan bog'liq. Shuningdek, bu turkumdag'i tangalarning ko'pchilik qismi To'xoristondagi xoqonlik bilan bog'liq turkiy va g'ayriturkiy sulolalarga tegishlidir. Sosoniy tangalaridagi "xoqon" unvoni bosilganlari G'arbiy turk va

Turgash xoqonliklariga tegishli tangalar bo'lsa, "xoqon" va "tegin" unvonlari birga uchraydiganlari esa To'xoristondagi xoqonlikning ilk boshqaruvchilari (580-620-yillar) va kelib chiqishi Ashina xonadoniga taqaluvchi To'xoriston Yabg'ulari (620-750-yillar) bilan bog'lansa kerak. Shuningdek, ayrimlarida ⚡ ko'rinishidagi tamg'a, ayrimlarida esa "xoqon" unvoni uchraydigan To'xoriston tangalarini bu yerdagi Yabg'ular sulolasini bilan bog'lash o'rnlidir. Demak, kelib chiqishi G'arbiy Turk xoqonligiga borib taqaladigan To'xoriston Yabg'ulari "Ashina tamg'asi" deb atasa bo'ladigan ushbu tamg'ani o'z tangalariga qo'ygan bo'lib chiqadi. Shu o'rinda ular o'z tangalarini bostirar ekan, G'arbiy turk xoqonlarining bosh unvonini aks ettirganlar yoki bo'lmasa ular nomidan tanga bostirganlar, ayrim hollarda esa biror unvonga emas, birgina tamg'a (⚡)ga o'r'in berish bilan cheklanganlar, deb ayta olamiz. Bundan tashqari, ayrimlari yolg'iz "tegin" unvoni, ayrimlari esa "tegin" va "tarxon" unvonlari bilan birga bostirilgan tangalarni xoqonlikning To'xoristondagi ilk boshqaruvchilari (teginlar) va ularning yordamchilari (tarxonlar) faoliyati bilan bog'lash o'rnlidir.

To'xoristonning sug'diy yozuvli turkiy unvon va tamg'alar bilan bostirilgan qolgan tangalarini Chag'oniyon, Termiz, Vaxsh, Qo'bodiyon va boshqalarining boshqaruvchilari bilan bog'lar ekanmiz, bu tangalarning ham Choch, Farg'ona va Sug'd (Panch)da bostirilgan eski turk tangalaridagi tamg'alarga yaqin o'xshashlikka egaligi, ham xitoy, arab va fors tilidagi manbalarda ulardan ko'pchiligining boshqaruvida turkiy sulolalar turganligiga doir ma'lumotlar uchrashiga tayanmoqdamiz. Demak, boshlang'ichda Oltoy tog'lari va O'rxun (Mo'g'uliston) tekisliklarida o'z davlatini qurban va yillar o'tgan sayin Sharqiy Turkiston, Amudaryo – Sirdaryo oralig'i, Xuroson va Shimoliy Hindiston kabi o'troq o'lkalarda o'z boshqaruvini o'rnatgan Turk xoqonligi o'zidan oldingi ko'chmanchi negizli bir necha davlat uyushmalaridan farqli o'laroq tanga bostirishni yo'lga qo'ygan, buni amalga oshirar ekan, o'z milliy yozuvi – qadimgi turk-run yozuvidan tashqari sug'diy, baqtriy, hind va pahlaviy yozuvlari bilan tanishishga ulgurgan. Ayniqsa, sug'diy yozuv va til xoqonlikda rasmiy maqomga ega bo'lganligi buni ko'rsatib turibdi. Yuqorida qisqacha tanishib chiqilgan To'xoristonning sug'diy yozuvli turkiy tangalari ham buni ko'rsatib turibdi.

### **Adabiyotlar**

Бабаяров, Г. 2007. *Древнетюркские монеты Чачского оазиса (VI – VIII вв. н.э.)*. Ташкент: Национальной библиотеки Узбекистана имени Алишера Навои.

- Бабаяров, Г. 2014. «Монеты Оттара с изображением парного портрета». *Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқоти методлари ва методологиясининг долзарб масалалари*: конференция материаллари, 70-75. Тошкент.
- Бабаяров, Г., Кубатин, А. 2010. «Тамги как источник по истории взаимоотношений Чача и Токаристана в раннем средневековье (на основе нумизматического материала)». *Kitobda O'zbekiston tarixi*, 1. 313. Ташкент.
- Бабаяров, Г. 2019. «Тамги на монетах оазисов Средней Азии эпохи раннего средневековья». *Тамги доисламской Центральной Азии – Tamgas of Pre-Islamic Central Asia*, 133-163. Самарқанд: МИЦАИ (Межд. Инст. Центральноазиат. Исслед. ЮНЕСКО).
- Баратова, Л.С. 2005. «Византийско-согдийско-тюркский симбиоз на монетах Средней Азии». *Second International Congress on Turkic Civilization*, 415-422. Bishkek, October 4-6.
- Баратова, Л.С., Лившиц, В.А. 2002. «О согдийских надчеканах на Сасанидских монетах и подражаниях им». В книге *Культурное наследие Средней Азии*, 21-26. Ташкент.
- Бичурин, Н.Я. (Иакинф). 1950-1953. *Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена*. В 3-х томах. М.-Л. Том I. 383 с.; Том II. 335 с.; Том III. 327 с.
- Бобоёров, Ф. 2002. “Түрк хоқонлиги даврида Тохаристон”. *Мозийдан садо 4*: 10-11.
- Бобоёров, Ф. 2003. “Тохаристон ябғулари тарихига доир”. *O'zbekiston tarixi* 3: 3-10. Тошкент.
- Babayar, G. 2007. *Köktürk Kağanlığı sikkeleri Katalogu – The Catalogue of coins of Turkic Qaghanate*. Ankara: TİKA.
- Babayar, G. 2008. “Fergane bölgesinde bulunan Türk-Runik yazılı Köktürk sikkeleri üzerine”. *Dünden Bugüne İpek Yolu: Beklentiler ve Gerçekler*, 135-146. İstanbul.
- Babayarov, G. 2017. “On the Relations between the Rulers of Chach and Tokharistan in the Pre-Islamic Period”. *Archivum Eurasiae Medii Aevi* 23: 5-20. Harrasowitz Verlag, Wiesbaden.
- Babayarov, G., Kubatin, A. 2013. “Byzantine impact on the iconography of Western Turkic coinage”. *Acta Orientalia Academiae Scientiarum Hung* 66 (1): 47-58. Budapest.
- Джуманиязова, Ф. 2018. *Илк ўрта асрларда Тохаристон ва Кобул водийисида туркй сулолалар*. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент.
- Ekrem, E. 2003. *Hsüan-Tsang Seyahetnamesi'ne göre Türkistan*. Basılmış doktora tezi. Hacettepe Üniversitesi. Sosyal Bilimler Enstitüsü, Ankara.
- Esin E. 1972. “Kün-Ay (Ay Yıldız Motifinin proto-Türk Devrinden Karahanlılara Kadar İkonografisi)”. VII. TTK *Bildirileri* I: 313-359. Ankara.
- Феофилакт Симокатта. 2005. “История”. *Великая степь в античных и византийских источниках*, 583-639. Сборник материалов. Сост. и ред. А. Н. Гаркавца. Алматы: Баур.
- Гафуров, Б. Г. 1972. *Таджики, древнейшая, древняя и средневековая*

- история. Москва.
- Гоибов, Г. 1989. *Ранние походы арабов в Среднюю Азию*. Душанбе: Дониш.
- Гумилев, Л. Н. 1967. *Древние тюрки*. Москва: Наука.
- Grenet, F., Vaissiere, E. 2002. "The last days of Panjikent". *Silk Road Art and Archaeology* 8: 155–196. Kamakura.
- Göbl, R. 1967. *Dokumente zur Geschichte der Iranischen Hunnen in Baktrien und Indien*. Band I. Wiesbaden.
- Harmatta, J., Litvinsky, B. A. 1996. "Toharistan and Gandhara under Western Turk rule". *History of Civilizations of Central Asia* 3: 367-401. Paris.
- Кляшторный, С. Г. 1985. «Генеалогия и хронология западнотюркских и тюргешских каганов VI – VIII век». Из истории дореволюционного Киргизистана, 165–168. Фрунзе, Илим.
- Kljaštornyj, S. G., Livšic, V. A. 1972. *The Sogdian Inscription of Bugut reviced* // AOASH. Budapest, Tom. XXVI (1): 69–102.
- Lurje, P. 2010. *Personal names in Sogdian texts in Iranisches Personennamenbuch 2*. Mitteliranische Personennamen 8. Wien: Verlag der Österreichischen Akademie der Wissenschaften.
- Лившиц, В.А. 1979. «Правители Панча (Согдийцы и тюрки)». Народы Азии и Африки, 4: 56-69. Москва.
- Marşak, B. I. 2002. "Türkler ve Soğdlular". *Türkler* 2: 170–178. Ankara.
- Мусакаева, А. А., Бердимурадов, А.Э. 2018. «Клад из Сазагана». *Археологические исследования в Узбекистане 2015-2017 года*. Вып. 11: 137-144. Самарканд.
- Ртвеладзе, Э. В. 1987. *Древние монеты Средней Азии – Ўрта Осиёнинг қадими тангалари*. Ташкент.
- Ртвеладзе, Э. 2006. *История и нумизматика Чача (вторая половина III – середина VIII в. н.э.)*. Ташкент.
- Смирнова, О. И. 1981. *Сводный каталог согдийских монет*. Бронза. Москва.
- Skaff, K. J. 2002. "Western Turk Rule of Turkestan's Oases in the Sixth through Eighth Centuries". *Turks* 2: 364–372. Ankara.
- Stark, S. 2008. *Die Alttürkenzeit in Mittel- und Zentralasien. Archäologische und historische Studien*. Wiesbaden.
- Taşagil, A. 1999. *Gök-Türkler*. II. Ankara: TTK.
- Taşagil, A. 2003. *Gök-Türkler*. I, 2. Baskı. Ankara: TTK.
- Тугушева, Л. Ю. 1991. *Үйгүрская версия биографии Сюань-Цзана*. Москва.
- <http://www.zeno.ru> – Pre-Islamic Central Asia, Northern Tokharistan.
- Zeymal', E.V. 1994. "The Circulation of Coins in Central Asia during the Early Medieval period (Fifth-Eighth Centuries A.D.)". *Bulleten of the Asia Institute* 8: 245-267. Bloomfield hills.
- Зеймаль, Е.В. 1995. "Серебряные драхмы сасанидского образца в Северном Токхаристане (5-8 вв.)". Эрмитажные чтение 1986-1994 годов памяти В.Г. Луконина, 122-127. Санкт-Петербург.
- Shaban, M.A. 1971. "Khurasan at the Time of Arab Conquest". *Iran and Islam. In memory of the Late Vladimir Minorsky*, 480-490. Edinburg.

Chavannes, E. 1903. "Documents sur les Tou-kiue (Turks) occidentaux".  
*Сборник трудов Орхонской экспедиции*, 6. Санкт-Петербург.

**Gaybulla Boboyorov**

(*Tashkent, Uzbekistan*)

gaybullah@navoiy-uni.uz

## **Coins of Ancient Tokharistan**

### **Abstract**

The tamga signs images and titles engraved on coins represent symbols of ruling dynasties and the states they had founded and were associated both with the territory in which they ruled and with their origin (ethnicity). In this regard, a particular interest is the caused by Old Turkic tamgas and titles ("Qaghan", "Yabghu", "Tegin", "Tarkhan") available on the Pre-Islamic Turkic coins of Tokharistan region (Southern Uzbekistan – Southern Tadjikistan – Northern Afghanistan) with Sogdian scripts. On the early medieval coins of Chach related to the Western Turkic Qaghanate (568–740), there are four types of tamgas – a lyre-shaped one with its varieties, a tamga in the form of two crossed swords, an anchor-form tamga and the diamond-form one, and the fact comes under notice that similar tamgas were engraved on the coins of the Northern Tokharistan of the same epoch. Appearance of these tamgas and titles on the territory of Chach and Tokharistan in the Early Middle Ages is directly related to political activities of the Western Turkic Qaghanate and ethno-cultural processes which were taking place in Central Asia.

**Key words:** Central Asia, Transoxiana, Tokharistan, Pre-Islamic period, coins, Turkic Qaghanate, Sogdian script, Old Turkic titles, tamga (stamp) signs, dynasties.

**About the author:** *Gaybulla B. Boboyorov* – Doctor of Sciences in History, Assistant Professor, Tashkent state University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi'i.

**For citation:** Boboyorov, G. B. 2019. "Coins of Ancient Tokharistan". *Uzbekistan: Language and Culture* 2: 74–100.

### **References**

- Babajarov, G. 2007. *Drevnetjurkskie monety Chachskogo oazisa (VI – VIII vv. n.e.)*. Tashkent: Nacional'noj biblioteki Uzbekistana imeni Alishera Navoi.
- Babajarov, G. 2014. "Monety Otrara s izobrazheniem parnogo portreta".

- Tarhiij manbashunoslik, tarihnavislik, tarih tadqi̇koti metodlari va metodologijasining dolzarb masalalari: konferencija materiallari, 70-75. Toshkent.
- Babajarov, G., Kubatin, A. 2010. "Tamgi kak istochnik po istorii vzaimootnoshenij Chacha i Toharistana v rannem srednevekov'e (na osnove numizmaticheskogo materiala)". *O'zbekiston tarixi* 1: 313. Tashkent.
- Babajarov, G. 2019. "Tamgi na monetah oazisov Srednej Azii jepohm rannego srednevekov'ja". *Tamgi doislamskoj Central'noj Azii – Tamgas of Pre-Islamic Central Asia*, 133-163. Samarqand: MICAI (Mezhd. Inst. Central'noaziat. Issled. JuNESKO).
- Baratova, L. S. 2005. "Vizantijsko-sogdijsko-tjurkskij simbioz na monetah Srednej Azii". *Second International Congress on Turkic Civilization*, 415-422. Bishkek.
- Baratova, L. S., Livshic, V. A. 2002. "O sogdijskih nadchekanah na Sasanidskih monetah i podrazhanijah im". *Kul'turnoe nasledie Srednej Azii*, 21-26. Tashkent.
- Bichurin, N. J. (Iakinf). 1950-1953. *Sobranie svedenij o narodah, obitavshih v Srednej Azii v drevnie vremena*. V 3-h tomah. M.- L. Tom I. 383 s.; Tom II. 335 s.; Tom III. 327 s.
- Bobojorov, G. 2002. "Turk hoqonligi davrida Tohariston". *Mozijdan sado* 4: 10-11. Toshkent.
- Bobojorov, G. 2003. "Tohariston jabrulari tarihiga doir". *O'zbekiston tarixi* 3: 3-10. Toshkent.
- Babayar, G. 2007. *Köktürk Kağanlığı sikkeleri Katalogu – The Catalogue of coins of Turkic Qaghanate*. Ankara: TİKA.
- Babayar, G. 2008. "Fergane bölgesinde bulunan Türk-Runik yazılı Köktürk sikkeleri üzerine". *Dünden Bugüne İpek Yolu: Beklentiler ve Gerçekler*, 135-146. İstanbul.
- Babayarov, G. 2017. "On the Relations between the Rulers of Chach and Tokharistan in the Pre-Islamic Period". *Archivum Eurasiae Medii Aevi* 23: 5-20. Harrasowitz Verlag, Wiesbaden.
- Babayarov, G., Kubatin, A. 2013. "Byzantine impact on the iconography of Western Turkic coinage". *Acta Orientalia Academiae Scientiarum Hung* 66 (1): 47-58. Budapest.
- Dzhumanijazova, F. 2018. *Ilk urta asrlarda Tohariston va Kobul vodijsida turkij sulolalar*. Tarih fanlari bujicha falsafa doktori (PhD) dissertacijasi avtoreferati. Toshkent.
- Ekrem, E. 2003. *Hsüan-Tsang Seyahetnamesi'ne göre Türkistan*. Basılmamış doktora tezi. Hacettepe Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü. Ankara.
- Esin, E. 1972. "Kün-Ay (Ay Yıldız Motifinin proto-Türk Devrinden Karahanlılara Kadar İkonografisi)". VII. *TTK Bildirileri* I: 313-359. Ankara.
- Feofilakt Simokatta. 2005. "Istorija". *Velikaja step' v antichnyh i vizantijskih istochnikah*. Sbornik materialov, 583-639. Sost. i red. A. N. Garkavca. Almaty: Baur.
- Gafurov, B. G. 1972. *Tadzhiki, drevnejshaja, drevnjaja i srednevekovaja istorija*. Moskva.
- Goibov, G. 1989. Rannie pohody arabov v Srednjuju Aziju. Dushanbe: Donish.
- Gumilev, L. N. 1967. *Drevnie tjurki*. Moskva: Nauka.
- Grenet, F., Vaissiere, E. 2002. "The last days of Panjikent". *Silk Road Art and*

- Archaeology* 8: 155–196. Kamakura.
- Göbl, R. 1967. *Dokumente zur Geschichte der Iranischen Hunnen in Baktrien und Indien*. Band I. Wiesbaden.
- Harmatta, J., Litvinsky, B.A. 1996. "Toharistan and Gandhara under Western Turk rule". *History of Civilizations of Central Asia* 3: 367-401. Paris.
- Kljashtornyj, S. G. 1985. "Genealogija i hronologija zapadnotjurkskikh i tjurgeshskikh kaganov VI – VIII vek". *Iz istorii dorevolucionnogo Kirgizistana*, 165–168. Frunze: Ilim.
- Kljaštornyj, S. G., Livšic V. A. 1972. "The Sogdian Inscription of Bugut reviced". Tom. XXVI (1): 69–102. AOASH. Budapest.
- Lurje, P. 2010. *Personal names in Sogdian texts in Iranisches Personennamenbuch 2. Mitteliranische Personennamen 8*. Wien: Verlag der Österreichischen Akademie der Wissenschaften.
- Livshic, V. A. 1979. "Praviteli Pancha (Sogdiycy i tjurki)". *Narody Azii i Afriki* 4: 56-69. Moskva.
- Marşak, B. I. 2002. "Türkler ve Soğdlular". *Türkler* 2: 170–178. Ankara.
- Musakaeva, A. A., Berdimuradov, A.J. 2018. "Klad iz Sazagana". *Arxeologicheskie issledovanija v Uzbekistane 2015-2017 goda* 11: 137-144. Samarkand.
- Ptveladze, J. V. 1987. *Drevnie monety Srednej Azii – Urta Osijoning qadimij tangalari*. Tashkent.
- Rtveladze, J. 2006. *Istorija i numizmatika Chacha (vtoraja polovina III - seredina VIII v. n.e.)*. Tashkent.
- Smirnova, O. I. 1981. *Svodnyj katalog sogdijskikh monet. Bronza*. Moskva.
- Skaff, K. J. 2002. "Western Turk Rule of Turkestan's Oases in the Sixth through Eighth Centuries". *Turks* 2: 364–372. Ankara.
- Stark, S. 2008. Die "Alttürkenzeit in Mittel- und Zentralasien". *Archäologische und historische Studien*. Wiesbaden.
- Taşagil, A. 1999. *Gök-Türkler*. II. Ankara: TTK.
- Taşagil, A. 2003. *Gök-Türkler*. I, 2. Baskı. Ankara: TTK.
- Tugusheva, L. J. 1991. *Ujgurskaja versija biografii Sjuan'-Czana*. Moskva.  
[http://www.zeno.ru – Pre-Islamic Central Asia, Northern Tokharistan](http://www.zeno.ru).
- Zeymal', E. V. 1994. "The Circulation of Coins in Central Asia during the Early Medieval period (Fifth-Eighth Centuries A.D.)". *Bulleten of the Asia Institute* 8: 245-267. Bloomfield hills.
- Zejmal', E.V. 1995. "Serebrjanne drahmy sasanidskogo obrazca v Severnom Toharistane (5-8 vv.)". *Jermitazhnie chtenie 1986-1994 godov pamjati V.G. Lukonina*, 122-127. Sankt-Peterburg.
- Shaban, M. A. 1971. "Khurasan at the Time of Arab Conquest". In: *Iran and Islam. In memory of the Late Vladimir Minorsky*, 480-490. Edinburg.
- Chavannes, E. 1903. "Documents sur les Tou-kiue (Turks) occidentaux". *Sbornik trudov Orhonskoj jekspedicii*, 6. Sankt-Peterburg.